



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 267-275 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

FERMER XO'JALIKLARIGA SERVIS XIZMATI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ILMIY YONDASHUVLARI



Ilhom Safarboyevich Shukurov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligida servis bozorining ahamiyati, uning asosiy belgilari, funksiyalari, fermer xo'jaliklari servis bozorining asosiy segmentlarining tarkibiy tuzilmasi, shuningdek fermer xo'jaliklari servis bozorini taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, servis, fermer xo'jaligi, servis bozori, taraqqiyot.

Аннотация. В статье представлено значение рынка услуг в сельском хозяйстве, его основные особенности, функции, структурная структура основных сегментов рынка фермерских услуг, а также приоритетные направления развития рынка фермерских услуг.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сервис, фермерское хозяйство, рынок услуг, развитие.

Abstract. The article presents the importance of the agricultural services market, its main features, functions, structural structure of the main segments of the farm services market, as well as priority areas for the development of the farm services market.

Keywords: agriculture, service, farming, services market, development.

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tizimli taraqqiyotini amalga oshirishni belgilab beruvchi servis xizmati ko'rsatishning nazariy muammolarini o'rganish, ushbu sohani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Shunday ekan, servis xizmatining mohiyati, uning mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy hayotida tutgan o'rni, rivojlantirish istiqbollari doir ilmiy nazariy qarashlar iqtisodiyot sohasini taraqqiyotining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Har bir sohani rivojlantirishda amaliy tajribalarni umumlashtirish natijasida, nazariy tadqiqotni chuqurlashtirish, ushbu sohani yuksalishiga sabab bo'ladi.

Servis xizmatiga doir nazariy qarashlar uzoq insoniyat sivilizasiyasiga borib qadaladi. Ayrim servis xizmati turlari kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlarida, xizmat ko'rsatish shaklida hattoki eng oddiy moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish hali yo'lga qo'yilmasdan ham avvalroq vujudga kelgan.

Insoniyat hayot sifatini yaxshilashda eng muhim soha sifatida servis xizmat ko'rsatishning o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham mazkur soha barcha jahon mamlakatlari miqiyosida muttasil rivojlanib bormoqda. Bugungi Yangi O'zbekistonni shakllanishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyotning barcha jabhalari singari agrar sohada ham servis xizmat ko'rsatish bo'yicha ham keskin o'zgarishlar amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, bu borada, 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni [1] bevosita davomi sifatida sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan bo'lsa, Ushbu Harakatlar strategiyasiga ko'ra "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" nomli uchinchi yo'nalishida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish eng muhim vazifalar sifatida belgilab olingan. Shu bilan birga, mazkur soha taraqqiyotini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"[2]da muhim yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan. Unga ko'ra, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bosh maqsad hisoblanib, keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda 3,5 mln yangi ish o'rinlarini barpo etish belgilab olingan.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Servis xizmati iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari jadal taraqqiyotining muhim asosi sifatida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Shu sababli servis xizmatini iqtisodiy mohiyatini ochib berish uchun shu sohada o'z nazariy qarashlariga ega bo'lgan soha mutaxassisleri va olimlarining fikrlarini tahlil qildik. "Servis" tushunchasini mohiyatini ochib berishda, "xizmat" tushunchasini mohiyati va umumiy o'xshash va farqli jihatlari tahlil etildi. Avvalo, "xizmat" so'zi, asosan, quyidagi ikki xil lug'aviy ma'noga ega: - boshqa birovga foyda keltiruvchi harakat va biror kimga xo'jalik qulayliklarini taqdim etmoq [3].

V.I.Dalning "Толковый словарь живого великорусского языка" nomli lug'atida xizmat tushunchasi "Xizmat ko'rsatish, yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq" [4] ma'nolarida talqin qilingan.

Klassik iqtisodchilar Adam Smit (1723-1790), A. Marshallar "xizmat", "xizmat ko'rsatish" sohasiga o'z qarash va fikrlarini bayon etib o'ziga xos ilmiy qarashlarini ilmiy asoslagan. Adam Smit fikriga ko'ra, xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Xalqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" (1766) nomli asarida «unumli mehnat» va «unumsiz mehnat» tushunchalari xususida fikr bildirgan [5]. Shu orqali A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo'shgan.

Angliyalik iqtisodchi A.Marshall xizmat ko'rsatish mohiyatini ochib berishda mantiqan ilmiy asoslangan fikrlarni ilgari surdi [6]. Unga ko'ra, xizmatlarni mehnatning

nomoddiy, sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalar sifatida talqin qildi. Shu bilan birga barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning har biri ham mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibor qaratdi. U birinchi bo'lib barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lgan holda, ularning har biri mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birdek muhim ekanligini asoslagan.

Bu yo'nalishda xorijlik iqtisodchilar ham alohida o'z ilmiy fikrlarini bayon qilishgan. AQShlik iqtisodchi professorlar Kempell R.Makkonnell va Stenli L.Bryular "xizmat – bu sezib bo'lmaydigan (ko'zga ko'rinmaydigan) va uning o'rniga qiymatga ega bo'lgan qandaydir narsani iste'molchi, firma yoki hukumat tomonidan taqdim etilishidir" [7], deb ta'rif berishgan.

F.Kotler "Xizmatlar-bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat yoki ne'mat, biron narsaga egalik qilish imkonini bermaydigan foydali harakat" [8], deb ta'kidlagan.

Polshalik iqtisodchi O.Lange xizmatlarning mohiyatini quyidagicha deb hisoblagan, yani "kishilar istemolini qondirish bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan har qanday funksiyalar xizmatlar deb aytiladi" [9].


3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida foydani optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

4. Tahlil va natijalar

Respublikamizdagi yirik olimlarimizdan I.Shodmonov, M.Raxmatovlar fikriga ko'ra, xizmat ko'rsatish jarayoni ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi va muhim yo'nalishidir deb xizmatlarni ikki toifaga bo'lib o'rganish mumkinligini ilgari so'radi. Unga ko'ra, xizmatlar:

- qiymatni yaratuvchi xizmatlar;
- qiymatni oshiruvchi xizmatlarga ajratadi. Shunday ekan, xizmatlarni mohiyatini ochib berishda ishlab chiqarishning mohiyatini asoslashni zarur deb hisoblaydi va unga ko'ra moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga ajratish zarur deb hisoblagan.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi [10]

Iqtisodchi olimlar tomonidan chop etilgan ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda esa "xizmat" va "servis" tushunchalarining iqtisodiy mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Ochilovlar "Xizmat deyilganda insonning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi" [11] deb ta'kidlaydi. Ularning ta'rifiga ko'ra xizmat insonlar bilan birga korxonalariga, jamiyatga, davlatga ko'rsatilsa, "servis" asosan aholiga, odamlarga ko'rsatiladigan sifatli xizmat deb hisoblagan.

Qayd etilgan manbalarda keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki: "xizmat" va "servis" mazmunan o'xshash kategoriyalar bo'lib, o'z istemolchilariga naf keltiradigan faoliyat (harakat) turidir. Bizning fikrimizcha, "servis" tushunchasi "xizmat" tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchisi birinchisini to'ldiradi va u qo'shimcha xizmat ko'rinishida bo'ladi [12].

"Xizmat" va "servis" tushunchasi singari "xizmat ko'rsatish" tushunchasi bo'yicha ham bahsli fikrlar mavjud bo'lib, bizlar bu tushunchalar bo'yicha ham ayrim olimlarning fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.M.Muhammedov xizmat ko'rsatish sohasini inson nuqtai nazaridan qarab, aholining sog'lig'iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi xodimlarning mehnat unumdorligiga, o'z hayotidan rozilik darajasi va xursandliligiga, umuman ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan soha" [13] deb ta'rif bersa, J.M.Qurbonov xizmat ko'rsatish – bu insonlarning yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo'lidagi harakati bilan faoliyat olib borishi tushuniladi" [14] deb ta'rif keltirgan.

Q.J.Mirzayev xizmat ko'rsatish sohasini korxonalarining daromad olish nuqtai nazaridan qarab, "xizmat ko'rsatish - insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish subyektlarida yuzaga keladigan, o'z iste'mol ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat" [15] deb aytib o'tgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, servis (jumladan, xizmat) iqtisodiy faoliyatning muhim bir shakli. U moddiy va nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lib, aholi va yuridik shaxslar ehtiyojlarini (talab chegarasida) qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunda, tabiiyki, iqtisodiy munosabatlar amal qiladi.

Servis xizmat iqtisodiy kategoriya sifatida insonlar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moddiy hamda nomoddiy tushdagi malakali (zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan) xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari (talabi)ni qondirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi.

Bugungi kunda servis turlarining kengayishi kishilik jamiyatida talab va ehtiyojning kuchli ta‘sir doiraga ega bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, iqtisodiyotning muhim tarmogi hisoblangan qishloq xo‘jaligida soha ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bogliq xizmatlar – fermer xo‘jaliklarga servis xizmati ko‘rsatish (agroxizmatlar) muhim hisoblanadi.

Alohida ta‘kidlash zarurki, biz mazkur tadqiqot ishida fermer xo‘jaliklariga servis xizmat ko‘rsatish tushunchasini agroxiizmat tushunchasi bilan teng ma‘noda to‘g‘ri keladi deb hisoblaymiz.

Fermer xo‘jaliklariga servis xizmati ko‘rsatish bu - qishloq xo‘jaligi mahsulotni yetishtirish, shuningdek ishlab chiqilgan mahsulotlarni qayta ishlash, istemolchiga sotish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi malakali (zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan) xizmat turlarini ko‘rsatuvchi faoliyatdan iborat.

Fermer xo‘jaliklariga servis xizmati ko‘rsatuvchilar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi xizmatlarni, jumladan, moddiy-texnika ta‘minoti va transport xizmatlari, aloqa xizmati, urug‘lik bilan ta‘minlash, agrokimyo xizmati, melioratsiya xizmati, veterinariya va naslchilik xizmati, yem-xashak ta‘minoti xizmatlari, mini bank xizmatlari va boshqa shu kabilardan iborat.

Darhaqiqat, fermer xo‘jaliklariga servis xizmatlari bu - bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar soha tizimida fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish jarayonini qondirishga qaratilgan, shu jarayonda zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan holda iste‘molchilar talab va takliflarini o‘zaro uyg‘unlikda shakllantiruvchi hamda uni amalga oshirish davrida daromadga yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatlar majmuidir.

Bugungi innavasion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida fermer xo‘jaligiga servis xizmatlar alohida iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi bir qator xususiyatlariga ega:

❖ agrar sohada fermer xo‘jaliklarini faqatgina asosiy jarayon ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanishlariga imkon berib, sohada qushimcha daromad yaratish imkoniyatini kengaytiradi;

❖ agroxiizmat subyektlari tugridan tugri moddiy ne‘matlar yaratmasada, ammo ular xizmatidan foydalangan xo‘jaliklariga ham qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratiladi;

❖ qishloq xo‘jaligini intensiv asosda rivojlantirishga imkon yaratilib, bunda mehnat unumdorligini oshirish, mehnat taqsimotini maqbullashtirish, qishloq aholisini ish bilan bandligini taminlash kabi masalalarni hal etishga yordam beradi.

Respublikada agroxiizmatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida iste‘molchilar talab va taklifi asosida shakllanib, agroxiizmat subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining majmuaviy xarakterdagi xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi hamda

zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan daromad keltiruvchi maqsadga muvofiq faoliyati hisoblanadi. Bularning barchasi agroxizmatlarini oqilona tashkil qilish, ularning samaradorligini oshirish va qiyosiy darajasini baxolash masalalarini tadqiq etishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, agrar sohasida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni kelgusi tarqiqiyoti agroxizmatlarsiz amalga oshirib bo'lmashligi ilmiy asoslanildi. Bu esa, agroservis korxonalarini xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini fermer xo'jaliklari uchun qulay va maqbul sharoitda tashkil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarga agroxizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini tizimli rivojlantirish zaruriyati quyidagilardan iborat:

✓ fermer xo'jaliklari soniga mos ularga birlashtirilgan yer maydonlarining mavjud emasligi;

✓ fermer xo'jaliklarida moliyaviy resurslarning yetishmaslik muammolarining mavjudligi va ularning iqtisodiy jihatdan nobarqarorligi sababli turli agroxizmatlarga bulgan extiyojning yuqoriligi;

✓ fermer xo'jaliklari o'zlarida mavjud texnikalar, mashina va mexanizmlar yetishmasligi, mavjud yuklamalarining bugungi tarmoqni modernizatsiyalash zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos emasligi;

✓ raqamli iqtisodiyot o'tish sharoitida sifatli va o'z vaqtida agroxizmatlarini ko'rsatish orqali fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyati mavjudligi;

✓ qishloqda ortiqcha ish kuchining mavjudligi agroxizmatlarini amalga oshiruvchi subyektlarda ularni soha faoliyatiga jalb etish imkoniyatining mavjudligi;


✓ arzon, sifatli, kafolatli xizmat ko'rsatuvchi agroxizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligi va boshqa shu kabilardan iborat.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoniga ko'ra "Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish" vazifasi yuklatilgan bo'lib, ayniqsa soha taraqqiyotini jadal rivojlantirish uchun muhim maqsad sifatida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligini yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" [2] belgilab berilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib, agroxizmatni rivojlantirishga agrar islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida respublika Prezidenti va hukumati tomonidan ham alohida e'tibor berilmoqda.

Tadqiqotlar shuni kursatadiki, fermer xo'jaliklarida xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha talab va taklif muvozanatining nobarqarorligi, shuningdek agroservis subyektlarini tashkil etishda yetarli darajada ijtimoiy-demografik, ishlab chiqarish va iqtisodiy omillarning yetarli darajada hisobga olinmaganligi bois ushbu sohani xam nazariy xam amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Shunday ekan, Respublika agrar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash talablaridan kelib chiqib, fermer xo'jaliklarga servis xizmati ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Fermer xo'jaligida servis xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos xususiyatlari

* Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, agrar tarmoqda agroxizmatni tashkil etishning asosiy shartlaridan biri ushbu tizim obyektlarini agrar soha mahsulotlarini yetishtiruvchilarga yaqin bo'lgan masofada va ular xizmatidan foydalanishga qulay bo'lgan xamda istemolchilar talablaridan kelib chiqib joylashtirish zarur hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash zarurki, fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining mavsumiylik xususiyati o'z-o'zidan agroxizmat korxonalarini ham mavsumiylik asosida faoliyat yuritishini taqozo etadi. Shuning uchun agroxizmat korxonalarini tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligining mavsumiylik xarakteri yetarli darajada hisobga olinishi va har bir mavsumda yerlarni ekishga tayyorlashdan tortib, toki yetishtirilgan hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan agroxizmatlariga ustuvorlik berilishi lozim.

5. Xulosa va takliflar

Ta'kidlash joizki, servis xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish bu tizimning fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va rivojlantirishdagi o'rni va mohiyatini yanada aniqlashtirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublika agrar sohasida fermer xo'jaligiga servis xizmatning o'ziga xos xususiyatlar quyidagi yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

- birinchidan, respublikada fermer xo'jaligiga servis xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhiti yaratiladi, natijada xizmatlar sifati yaxshilanib, bahosi arzonlashadi;

- ikkinchidan, agrar sohada fermer xo'jaligi barqaror rivojlanadi;
- uchinchidan, fermer xo'jaligiga servis xizmatni shakllantirish va rivojlantirish asosida qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirish buyicha qo'shimcha manbalari yuzaga keladi;
- to'rtinchidan, qishloq xo'jaligiga, jumladan fermer xo'jaliklarigi xorijiy investisiyalar, yangi texnika va texnologiyalar kiritish imkoni yaratiladi. Bu esa o'z navbatida agrar sohada ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish va tarmoqni barqaror rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- beshinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchilar soni ortadi va ulardagi xizmatlar sifati yaxshilanadi.

Darhaqiqat fermer xo'jaligiga servis xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadida ularning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, shuningdek, ularni moliyaviy qullab quvvatlash, banklardan imtiyozli shartlar asosida kredit olish mexanizmlari ishlab chiqish uchun imtiyozli kreditlar ajratib berilishi kabilardan iborat.

Shunday ekan, agrar sohada fermer xo'jaliklariga servis xizmati ko'rsatish insoniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda rivojlandi. Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligida servis xizmatlarini sifatli tashkil etish va rivojlantirish soha taraqqiyotini keyingi jadal rivojlantirish strategiyasining muhim omili sifatida tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 07.02.2017. PF-4947.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60. 28.01.2022.
3. Ожегов С.И. Словар русского языка - М.: Гос.изд-во словарей, 1953. -776 с.
4. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4-х томах. -М.: Вольф, 1914
5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. -М.: Эксмо, 2009. -104 с
6. Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. — М.: Прогресс, 1993. — 23 л.
7. McConnell Campbell, Brue Stanley, Flynn Sean. Economics: Principles, Problems & Policies. — 22st Ed. — McGraw-Hill, 2021.
8. Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент // Экспресс-курс. 2-е изд. / Перевод с англ. Под ред. Божук С.Г. -Спб.: Питер. 2005. -301 с
9. Ланге О. Теория статистики. -М.: Статистика, 1970.
10. Шодмонов Ш., Рахматов М.. Иқтисодиёт назария. Дарслик. -Т.: Замин нашр, 2021. -63-б.
11. Ochilov I.S. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi.// Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. -T.: Iqtisod moliya, 2008. -37-b.
12. Qurbonov J.M. Xizmat, xizmat ko'rsatish, servis // Servis j. -Samarqand, 2009. - 1-son. -56 b.

13. Muxammedov M.M. "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish - ustuvor masala // Servis j. -Samarqand, 2021. -1-son. -53 b.

14. Қурбонов Ж.М. Хизмат, хизмат кўрсатиш, сервис Servis j. -Samarqand, 2009. -1-сон. -58 б.

15. Mirzayev Q.J. Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslari: Iqt. fan. dok. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. -Samarqand, 2012. -49- b.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

